Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

hamda rivojlanishining kaliti hisoblanadi. O‘zbekiston amaliyotida buxgalteriya hisobi doirasida hisoblangan foyda ko‘rsatkichlari ko‘pincha korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini baholash uchun ishlatiladi. Biroq g‘arb amaliyotida sof pul tushumlarini tahlil qilishga ustunlik beriladi. Shulardan qilib chiqqan xolda fikrimizcha korxona faoliyatining moliyaviy natijalarining eng mukammal ko‘rsatkichi davr uchun kapitalning o‘sishi deb tan olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi. Darslik / Qurbanov Z.N Misirov K.M.– T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. - 756 bet.
2. Moliyaviy va boshqaruv hisobi fanidan masalalar to‘plami: O‘quv qo‘llanma / A.Sh.Kuliboyev, X.N.Iskanov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. -T.: «Iqtisod-Moliya», 2020. -180 b.
3. MOLIYAVIY TAHLIL. Darslik. R.D. Dusmuratov, A.S. Boltayev.– T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. 457 bet.
4. Финансовый анализ: инструментарий обоснования экономических решений: учебник / О.В. Ефимова. — Москва : КНОРУС, 2023. — 322 с.
5. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций: практическое пособие / А.Д. Шеремет, Е.В. Негашев. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: ИНФРА-М, 2024. — 208 с.
6. Лукьянова, Е. С. (2015). Сущность финансовых результатов деятельности предприятия. Молодой ученый, (11), 13.
7. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия: учебник / Г.В. Савицкая. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва : ИНФРА-М, 2024. — 608 с.
8. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: учебное пособие / Л. Е. Басовский, Е. Н. Басовская. — Москва : ИНФРА-М, 2023. — 336 с.
9. Курбонова, Ш. (2024). ИҚТИСОДИЁТНИ ЭРКИНЛАШТИРИШ ВА ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. Iqtisodiyot va ta’lim, 25(2), 397-402.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING BUGUNGI KUNDAGI IQTISODIY O‘SISHI

Shodiyev Dilshodjon Abdulojon o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti
d.shodiyev@ferpi.uz

Annotatsiya: Maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishning bugungi kundagi iqtisodiy o‘sishi, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, tovar, transformatsiya, iqtidosiy o‘sish, yalpi ichki mahsulot.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan strategik rejalarga ko‘ra, yurtimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, qishloq xo‘jaligida hosildorlikni

Published: 23.12.2024
Cite this article: Shodiyev Dilshodjon Abdulojon o‘g‘li (2024). Barqaror iqtisodiy rivojlanishning bugungi kundagi iqtisodiy o‘sishi. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/952
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

oshirish, raqamli texnologiyalarni, tashqi va ichki turizmni hamda hududlarni kompleks rivojlantirish maqsad qilingan. Tabiiyki, bu hozirgi kunning talabidir [1].

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning dastlabki birinchi bosiqchi 1991 – 1995 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu bosqich iqtisodiyotni isloh qilish orqali bozor munosabatlari asoslarini yaratish bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyati, islohotlarni bir maromda, bosqichma–bosqich amalga oshirish hamda ijtimoiy – siyosiy vaziyatni barqarorligini saqlab turish hisoblanadi. Unda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning institusional asoslari barpo etildi, davlat boshqaruvi organlari funksiya va vazifalari tubdan isloh qilindi, xususiy tadbirkorlikni rivoji uchun zaruriy shart – sharoitlar shakllantirildi. Bu birinchi bosqich yalpi ichki mahsulotning pasayishi bilan tavsiflanuvchi davr hisoblanadi [2].

Mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko‘paygan miqdorda takrorlanishi hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko‘payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy o‘sishni shart qilib qo‘yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy o‘sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o‘sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarishning ilg‘or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o‘sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo‘paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Iqtisodiy o‘sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iktisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko‘rsatkichi bo‘lgan yalpi ichki mahsulot asos bo‘lib xizmat qiladi va iqgisodiy o‘sishning muayyan davr mobaynida real yalpi ichki mahsulot hajmining ijobiy tomonga o‘zgarishini ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlarida o‘z aksini topadi.

Iqtisodiy o‘sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘zgarishi mamlakat iktisodiyoti holati va dinamikasi to‘g‘risida ma’lumot bersada, iqtisodiy o‘sishni to‘liq aks ettirmaydi. Mamlakat aholisining o‘sish sur’ati 2023 yilga 2,1% ni, real yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 2023 yilgi holatga 6% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi yalpi ichki mahsulot hajmi o‘sgan bo‘lsada, kishilarning daromadlari o‘zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy o‘sishni to‘laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko‘rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real yalpi ichki mahsulotning o‘zgarishi qo‘llanadi.

Real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig‘idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy o‘sishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish yalpi ichki mahsulot o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy o‘sishekstensiv o‘sish deb ataladi.

Iqtisodiy o‘sishning sifat omillari ham mavjud bo‘lib, ularga mehnat, kapital va yer (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy o‘sish intensiv o‘sish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv o‘sishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o‘sish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. O‘sish sohasida — bandlikning yuqori dinamikasi; taqsimot sohasida — aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko‘rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida — savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste’mol sohasida — iste’molning va noishlab chiqarish jamg‘arishning o‘sishi shunday ko‘rsatkichlarga kiradi. Iqgisodiy o‘sishning asosiy ijobiy tomoni — uning ishlab chiqarish va iste’mol tuzilmasi o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatishidir [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://yuz.uz/uz/news/barqaror-iqtisodiy-osish--xalq-farovonligi-garovi
2. Vaxabov A.V., Rasulov T.S., Berkinov B.B., Asqarova M.T.,,“Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyalari” moduli bo‘yicha o‘quv –uslubiy majmua. Toshkent – 2016. 57-bet.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

SUN’IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Turayeva Gulizahro Qaxxorovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
Xabibullayev Islomjon Nematulla o‘g‘li
Guliston davlat universiteti magistri
Mamatkarimova Charos Baxrom qizi
Guluston Davlat Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) va uning iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Biroq, SI ba'zi kasblarni yo‘qotish xavfini ham keltirib chiqaradi. Shuningdek, sun’iy intellekt ijtimoiy muammolarni hal qilishda, masalan, iqlim o‘zgarishi va ochlik kabi global muammolarni yechishda yordam beradi. Kelajakda sun’iy intellekt global iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi kutilmoqda, bu esa iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Sun'iy intellekt, Shumpeterian iqtisodiyoti, raqamlashtirish, Sun'iy intellekt (SI) qo‘llanish usullari.

KIRISH

Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani echish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi.1990 yillarda SI taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo‘yicha jahon chempioni Garri Kasparovni enggan tarixdagi ilk kompyuter bo‘ldi.Ining yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo‘lib, u o‘z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan